



QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI

ILMIY-ELEKTRON JURNALI
5-SON

KOKAND UNIVERSITY | 2022
HERALD | VOLUME №5

**QO‘QON
UNIVERSITETI
XABARNOMASI
5-SON**

**KOKAND
UNIVERSITY
HERALD
VOLUME 5**

**ВЕСТНИК
КОКАНДСКОГО
УНИВЕРСИТЕТ
ВЫПУСК 5**

5/2022

QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI

Ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

G.E.Zaxidov

Bosh muharrir:

Sh.R.Ruziyev

Tahrir kengashi mas'ul kotibi:

A.A.Yusupov

Tahririyat hay'ati:

1. I.f.d., prof., S. G'ulomov (O'z.R. Fanlar Akademiyasi)
2. DSc., prof., Sh. I. Mustafakulov
3. DSc., Mark Rozenbaum (AQSH)
4. PhD., I. Bobojonov (IAMO, Germaniya)
5. PhD., N. Djanibekov (IAMO, Germaniya)
6. PhD., K. Akramov (IFPRI, AQSH)
7. PhD., N. Yusupov (Woosong University, J.Koreya)
8. DSc., D. Xosilova (University of Wyoming, AQSH)
9. I.f.d., prof., B. Salimov (TDIU)
10. I.f.d., prof., K. Axmedjanov (KIUT)
11. I.f.d., prof., N. Maxmudov (TDIU)
12. PhD., Sh. Aktamov (Singapur universiteti)
13. I.f.d., prof., U. Gafurov (TDIU)
14. I.f.d., prof., X. Qurbonov (TDIU)
15. F.f.n., dotsent D. Xodjayeva (QDPI)
16. I.f.n., dotsent, N. Urmonov (TDIU)
17. F.f.d., prof., Sh. Shaxobidinova (ADU)
18. F.f.d., prof., M. Umarxodjayev (ADU)
19. I.f.n., dotsent, J. Qambarov (FarPI)
20. PhD, dotsent, D. Rustamov (ADU)
21. I.f.n., dotsent, A. Islamov (Qo'qon universiteti)
22. PhD., M.Najmiddinov (Qo'qon universiteti)

Qo'qon universiteti xabarnomasi

("Вестник Кокандского университета – Kokand University Herald") ilmiy-elektron jurnali Qo'qon universiteti Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2020-yil 10- oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1138 raqami bilan ro'yxatidan o'tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O'zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-1695 ISSN-raqami olingan.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri, Turkiston ko'chasi, 28 a-uy, 1-xonardon

© "Kokand University" – 2022

Mundarija:/Outline:

Iqtisodiyot / Economy			
1.	I. Foziljonov	Modern methods for forecasting cash flows	3-6
2.	D. Nuritdinova	Management of processes of implementation of state interactive services through information technologies	7-9
3.	Tsoy Marina.	The role of gender equality in poverty reduction and decent job creation - world experience and practice of Uzbekistan	10-13
4.	B. Turanboyev B. Rajabboyev	Puzzles involving the stock market, inflation and the predictability of stock market returns	14-17
5.	A. Bakirbekova	K вопросу об управлении человеческими ресурсами в международных компаниях	18-25
6.	J. Kambarov	Yangi sanoat inqilobini risk boshqaruviga ta'siri masalalari	26-29
7.	F. Mulaydinov	Sanoat korxonalari va biznes faoliyatida integratsion axborot tizimlari	30-35
8.	M. Diyarova	Qurilish sohasida kichik biznes sub'yeqtalarining innovasion faoliyati va uni tashkil etishning asosiy tamoyillari	36-39
9.	R. Toxirov	Tadbirkorlik subyektlari samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari	40-43
10.	M. Boltayeva, A. Suyunov	Mamlakat iqtisodiyotida turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	44-46
11.	O. Ahmadjonov	O'zbekistonda islomiy moliya tizimini qo'llash istiqbollari	47-51
12.	M. Tojiyeva	Biznesni rivojlantirish samaradorligi hamda uni baxolashning uslubiy yondashuvlari	52-58
Pedagogika / Pedagogy			
13.	K. Kaziyev, Sh. Bisenova, F. Khamidullayev	Reflection as a quality for effective professional activities and self-development	59-63
14.	G. Umirova	Iqtisodiyotimizni rivojlantirishda innovatsiyalarning tutgan o'rni va roli	64-66
15.	F. Berdibekova	Akmeologik yondashuv asosida o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish	67-70
16.	M. Salayeva M. Djumabaeva	Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlash jarayonida kreativ faoliyatini rivojlantirish	71-74
17.	B. Ergasheva	Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasi pedagogik muammo sifatida	75-77
18.	M. Baqoyeva	Maktabgacha katta yoshdagи tarbiyalanuvchilarda bilishga qiziqishni rivojlantirish texnologiyasi	78-81
19.	L. Axmadaliyev	Qayyumiy" asaridagi №3-16-fiqrالarning tazkira qo'lyozma va nashri o'rtasidagi matniy-qiyosiy tadqiqi	82-88
20.	S. Muxabbat	O'zbek pedagogikasi tarixini davrlashtirishning nazariy asoslarini takomillashtirish tarixiy-pedagogik zarurat sifatida	89-92
21.	A Tangriyev	Yosh dzyudochilarida tezkor-kuch qobiliyatining samaradorligini oshirish	93-95
Fizika / Physics			
22.	G. Nafasova	Bo'lajak fizika o'qituvchilarida mantiqiy kompetentliligin rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	96-97
23.	G'. Nafasov D. Abduraimov	Transversal izotrop jism uchun ikki o'lchovli termoelastik bog'liq masalani sonli modellashtirish va uning dasturiy ta'minoti	98-103
Lingvistika / Linguistics			
24.	M. Xolova O. Lolayeva	Lingvistikada orfografik tamoyillar va tahlillar	104-106

O'ZBEKİSTONDA ISLOMIY MOLİYA TİZİMİNİ QO'LLAŞH İSTİQBOLLARI

Oybek Ahmadjonov

Qo'qon Universiteti 2 kurs doktoranti

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-dekabr 2022-yil

Tasdiqlandi: 26-dekabr 2022-yil

Jurnal soni: 5

Maqola raqami: 11

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.215>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ Keywords

Qur'on, Islom moliyasi, Hadis, shariat, murabaha, mudarib, Mudaraba Al muqayyada, musharaka, shirkat ul-mulk, shirkat ul-aqd, mudaraba, musavama, ijara, ribo.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola ishi Islomi kreditlardan foydalanishning jahon tajribalarini o'rganib, ularning amaliyotida qo'ilanilayotgan kredit turlarini aniqlash va yoritishdan iborat. Hozirgi zamonda bank tizimini takomillashtirishda "qarz beruvchi-qarzdor" munosabatlariiga emas, balki "sotuvchi-xaridor" yoki "Hamkorlik" munosabatlariiga asoslangan islam bank tizimining kredit mahsulotlaridan namuna olish dunyo iqtisodiyoti oldida turgan muammolarni yechishda yordam berishi mumkin. Bunda islam banklari tomonidan taqdim etilayotgan kredit turlarini nazariy va amaliy jihatlarini yoritib berish, shuningdek uning jahon amaliyotida sinovdan o'tgan kredit turlarini o'rganish hamda ularni mamalakatimiz tijorat banklarida joriy qilish va shakllantirish yuzasidan ilmiy takliflar ishlab chiqish maqsad qilingan.

Kirish. Islomiy moliya tarmog'i bugungi kunda jahonda jadal rivojlanib borayotgan va innovation moliyalashtirish mexanizmlarini o'zida jamlagan sohalardan biri hisoblanadi. Mutaxassislearning fikriga ko'ra, islomiy moliya muassasalari yalpi aktivlari miqdori 3 trillion AQSh dollarini tashkil etadi va yiliga 15–20% ga o'sib bormoqda¹Aholisining asosiy qismi musulmonlardan iborat bo'lgan davlatlar xususan O'zbekiston Respublikasi uchun ushbu tarmoqni rivojlantirish, ayniqsa, dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev IHT TIV kengashi 43-sessiyasi ochilish marosimida so'zlagan nutqida «Islom olami ulkan iqtisodiy, investitsion salohiyat, energetika resurslariga ega. Ulardan to'g'ri foydalanish, Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning xalqaro savdo iqtisodiy, moliyaviy, investitsion hamkorligini kengaytirish, mamlakatlarimizni birlashtiradigan transport yo'llarini tashkil etish yuksak iqtisodiy taraqqiyot ko'rsatkichlariga erishish imkonini beradi va bu pirovard natijada boshqa barcha sohalarning rivojlanishida asos bo'lib xizmat qiladi», – deya ta'kidlab o'tgan edi². Shunday ekan, musulmon davlatlaridagi faoliyati islomiy moliyalashtirishga asoslangan mavjud banklar, investitsiya fondlari va kompaniyalar mablag'larini O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va xususiy sektorni qo'llab quvvatlash maqsadida jaib etish ayni muddaodir. Buning uchun albatta milliy bank tizimiga yangicha yondashuv bilan nazar solmoq lozim, ya'ni an'anaviy moliyalashtirish mexanizmlari bilan bir qatorda sherikchilikka asoslangan moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish masalasi tadqiq etilishi muhim va dolzarb hisoblanadi. Islomiy moliya muassasalarining an'anaviy moliya muassasalaridan asosiy farqi shundan iboratki, islomiy moliya foyda va zararni bo'lishish hamda real aktivlarga asoslangan moliyalashtirishni o'zida namoyon qildi. Boshqacha aytganda, islomiy moliyalashtirish sherikchilikka asoslanadi. Bunday muassasalar mijoz talabi bo'yicha ob'ektni qurib berishi, asbob-uskunalar, tovar, xomashiyolar sotib olib berishi yoki ularni ijaraga berishi mumkin. Moliyalashtirish asosida savdo amaliyotlari yotadi. An'anaviy bank tizimida esa banklarning savdo amaliyotlarini amalga oshirishi qonunchilik nuqtai nazaridan mushkul hisoblanadi va bunga soliqqa tortish hamda bank faoliyatiga taalluqli me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'sqinlik qildi.

Mazkur vazifalarning samarali ijrosi respublikamiz Islom moliyasi tarmog'in rivojlanish tendentsiyasini chuqur tahvil qilish, uning barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni miqdoriy tadqiq etish va shular asosida ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishni talab etadi.

Tadqiqot maqsadi tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini tashkil qilish va uni rivojlantirish orqali moliya-kredit tizimining

samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Xalqimizning moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 20 apreldagi "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida" O'RQ-765-son³ qonunining qabul qilinishi va bu qonunga asosan islam moliya xizmatlarining nobank moliya muassasalarida joriy etilishi bu boradagi amalga oshirilayotgan islohotlardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, islam banklarining kredit mahsulotlarini nazariy va amaliy jihatlarini yoritib berish, shuningdek uning jahon amaliyotida sinovdan o'tganlarini o'rganish hamda ularni O'zbekistondagi tijorat banklarida joriy qilish va shakllantirish yuzasidan ilmiy takliflar ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarining zarurligi va nazariy asoslarini o'rganish hamda iqtisodiy o'sishdagi ahamiyatini yoritish;
- islomiy bank xizmatlarining asosiy tamoyillari hamda yo'nalishlarini tadqiq etish;
- an'anaviy va islomiy bank xizmatlari o'rtasidagi farqlar hamda ularning o'zaro aloqadorligi shuningdek, islomiy bank xizmatlarini o'ziga xos afzalliklarini o'rganish;
- tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini ko'rsatishning amaldagi holatini o'rganish;
- rivojlangan davlatlar va Markaziyo Osiyo davlatlarida islomiy bank xizmatlarining joriy etilishi va amaldagi holatini o'rganish;
- O'zbekistondagi tijorat banklari tomonidan islomiy bank xizmatlarini taqdim etishni amalga oshirish;
- O'zbekistonda islomiy bank xizmatlarini taklif etishda vujudga keladigan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar berish;
- O'zbekistonda islomiy bank xizmatlari faoliyatini tashkil etish yo'nalishlari bo'yicha taklif va tavsiyalarni berishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda statistik jadval va grafiklar, mantiqiy va taqqoslama tahlil, guruhlash usullari hamda mavzuga oid xorijiy, mahalliy olimlarning tadqiqot ishlari va rasmiy statistic internet saytlaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotda ilmiy ishni amalga oshirishda tijorat banklari, lizing kompaniyalari xamda kredit tashkilotlariida islom bank darchalarini tashkil etishda olimlar va soha vakillari bilan suhbat, ularning yozma va og'zaki fikr mulohazalarini tahvil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, tajribalar bilan qiyosiy tahvil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosha, taklif va

¹ Байдаулет, Е.А. Исломий молия асослари/ Е.А. Байдаулет. – Тошкент: «О'zbekiston» НМИУ, 2019. – 432 б.


² <https://m.kun.uz/news/2016/10/18/shavkat-mirziyoyevning-it-tivk-43-sessiasining-ochilish-marosimidagi-nutqi>

³ <https://lex.uz/docs/-5972411>

tavsiyalar berilishi, ilmiy bilishning dialektik yondashuv, mantiqiy fikrlesh, ilmiy abstraktsiyalash, tahlil va sintez, kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil usullar qo'llaniladi.


Tadqiqot natijalari. Jahan islomiy moliya bozorlarining aktivlari umumiyligi qiymarti qariyb 3 trillion AQSH dollarini tashkil qildi. Jahan islom moliya bozorlari uchun 2024 yilga borib 3,69 trillion AQSH dollarini tashkil etishi prognoz qilinmoqda (2022 yil). Islom moliya sektori 15 foizdan 25 foizgacha yiliga o'sayapti.

2022-yil yakunlariga ko'ra, global jihatdan islom banklarining aktivlari 2 349 milliard AQSH dollariga, Sukuk 631 milliard AQSH dollariga, islom fondlarining aktivlari 178 milliard AQSH dollariga, boshqa islomiy moliya institutlarining aktivlari 154 milliard AQSH dollariga, Takaful aktivlari esa milliard AQSH dollarini tashkil etgan.(4-rasm)



1-rasm. Islomiy moliya institutlarining aktivlari miqdori (Milliard AQSH dollarida)

Agar, 2022-yil yakunlariga ko'ra, islomiy moliya institutlari aktivlarini foizlarda ko'radian bo'lsak, islom banklari 70%, Sukuk 19%, islom fondlari 5%, boshqa islomiy moliya institutlari 4% va Takaful 2% ni tashkil etgan.(5-rasm)




2-rasm. Umumiyligi islomiy moliya aktivlarida islomiy moliya institutlarining ulushlari miqdori

Yuqoridagi grafikdan ko'rilib turibdiki, islomiy moliya instrumentlarining eng yuqori potensialga ega bo'lgan instituti – bu islom banklaridir.

Islom banklari Xalqaro bank bozorining 6 foizdan ortiqrog'ini tashkil etmoqda (2022). Hozirgi kunda 80 dan ziyod mamlakatlarda islomiy moliya ishlab turibdi va ularda mazkur soha uchun uchun

me'yoriy-huquqiy asoslar yaratilgan. Biroq islom dunyosining 10ta mamlakatlari islom moliyasining deyarli 95 foiziga egalik qiladi. Birinchilardan Eron 29% bilan, Saudiya Arabiston (25%), Malaziya (11%), BAA (8%), Quvayt (6%), Qatar (6%), Turkiya (2.6%), Bangladesh (2.1%), Indoneziya (2%) va Baxrain (1.8%).(3-rasm)¹

¹O Akhmadjonov, A Abdullaev, (2021). ISLOM MOLIYASINING XUSUSIYATLARI. Scientific progress 2 (8), 634-638.



3-rasm. 2022-yil 5-noyabr holati bo'yicha global islomiy moliyada katta ulushga ega mamlakatlar

Islomiy va an'anaviy moliyalashtirish o'rtasidagi farq. Iqtisodiyotning ijtimoiyo'naltirilganligi bu xo'jalik faoliyati natijalarini adolatli taqsimlashdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun iqtisodiyotning real sektorini rivojlangan va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishilgan bo'lishi kerak. Yuqorida ta'kidlanganidek, islom moliysi bozor iqtisodiyotini rad etmaydi va xususiy mulkchilikni tan oladi va rag'batlantiradi. Shunday ekan ikki xil: islomiy va kapitalistik iqtisodiyotlarni farqlashimiz mumkin.

Biznes va jismoniy shaxslar uchun eng asosiy muammo an'anaviy kreditlarning islom dini talablariga mos emasligi bo'lgan. Xususan, biznes vakillarining 38%, hamda jismoniy shaxslarning 55% diniy qarashlarini sababli an'anaviy kreditlardan foydalanmasliklarini aytishgan. Kreditlardan foydalanmaslikning boshqa sabablari sifatida foiz darajasining yuqoriligi, murakkab talablarining mavjudligi, hamda kreditlardan foydalanish zarurati yo'qligi ko'rsatilgan.

Jismoniy shaxslarga ham, tadbirkorlarga ham bank kreditlari olish murakkabligi, hamda foiz darajasi yuzasidan haqida savol berildi. Bu savolga 45% jismoniy shaxs kredit olish unchalik murakkab emasligini aytishgan bo'lsa, 44 foizi kreditlar bo'yicha foiz darajasining yuqoriligini ta'kidlashgan. Biznes vakillarining 42 foizi banklardan kredit olish unchalik murakkab emas deyishgan bo'lsa, 36 foiz tadbirkorlar foiz darajasining yuqoriligini qayd etishgan. Shuningdek, 44% biznes vakillari banklardan kredit olish o'ta darajada qiyin emas deb javob berishgan, 24 foizi kredit olish shartlari murakkab deyishgan va buni garov va bitimlarning murakkabligi bilan izohlashgan.

Banklar o'rtasidagi raqobat darajasini 15 foiz banklar juda yuqori deb, 70,37 foizi esa yuqori deb baholashgan. Banklarning boshqa moliya muassasalari bilan raqobat darajasini yuqori emas deb 85,19 foiz banklar (23ta bank) aytishgan bo'lsa, 7,41 foizi (2ta bank) yuqori deb aytishgan. Shuningdek banklardan ular lizing amaliyoti bilan shug'ullanishlari haqida so'ralganda, 2017-2018 yillarda 80 foiz bank lizing bilan shug' ullanganligi, 2019 yilga kelib esa bu ko'rsatgich 76 foizga tushganligi, 24% bank (6 ta bank) esa umuman lizing xizmatlari ko'rsatishmagani ma'lum bo'ldi.¹

2023 yil 1 yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasining doimiy aholi soni 36 mln2 kishidan oshdi. Shundan 95%² dan ortiq aholi islom diniga e'tiqod qildi. Mazkur ma'lumotning o'zi O'zbekistonda Islomiy moliya tizimi orqali Islom banklarining rivojlanishiga, ularning an'anaviy banklar bilan be'malol raqobatlasha olishiga isbot sifatida qarash yetarli deb hisoblayman.

O'zbekistondagi tijorat banklarida islom moliyasining joriy qilinishida quydagi to'siqlar va muammolar yuzaga kelishi mumkin:

- islom moliysi va xizmatlarini tartibga soluvchi qonunlarning yo'qligi va mavjud bo'lgan bank faoliyati va soliq bo'yicha

qonunchilik islom huquqi tamoyillari asosida ishlaydigan banklar uchun mos emasligi;

- mavjud soliq va bank qonunchiligining islom moliya amaliyoti xususiyatlari bilan nomuvofiqligi va banklardagi mavjud dasturiy ta'minot tizimlari islom moliya bitimlari bo'yicha amaliyot o'tkazishga moslashmaganligi;
- hozirgi kunda islom moliysi va bankchiligi bo'yicha mutaxassislar oly ta'lim tizimida yetishtirilmasligi va ushbu sohada faoliyat olib boruvchi kadrlarning sezilarli darajada kamligi;
- aholining islom moliysi haqidagi bilim va tushunchalari deyarli mavjud emasligi.
- Tadqiqotning asosiy ilmiy-amaliy yangiliklari quyidagilardan iborat:
- Tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini yo'lgan qo'yish orqali aholi va biznes vakillari ixtiyorida bo'lgan bo'sh turgan pul mablag'larini depozitga jaib qilish va undan foydalanish banklarning daromadini oshiradi va iqtisodiyotni rivojlanadir;
- Tijorat banklari islomiy moliyalashtirishni joriy etish orqali tadbirkorlik faoliyatidagi riskni bo'lishish yordamida biznes sub'ektlarini qo'llab quvvatlash bilan ko'proq mijozlar jaib qilish mumkin. Islom banklarining kredit turlari sezilarli darajada mijozlarni jaib qiladi;
- Islomiy bank xizmatlarini tashkil qilish moliya bozorida diversifikasiya darajasini oshirishi va raqobatni kuchaytirishga xizmat qiladi;
- Aholining bank xizmatlarini tanlashga imkoniyat yaratib beradi.

Xulosa. O'zbekistonda islomiy moliya tizimini keng joriy etish, aholi va yuridik shaxslarni islom moliya xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarni qondirilishida quydagilarni hisobga olish maqsadiga muvofiq bo'ladi va tavsiya etiladi.

I. Islom bankchiligi to'g'risidagi qonun qabul qilish va tegishli qonunchilik va me'yoriy hujjatlarga, shu jumladan Fuqarolik kodeksiga, Soliq kodeksiga va Banklar to'g'risidagi qonuniga tegishli o'zgartirishlar kiritish kerak. Bularni amalga oshirish uchun hukumat xalqaro tajribaga ega bo'lgan tajribalari huququnoslar, bank-moliya sohasi mutaxassislar, Iclom taraqqiyot banki (IsDB) va Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) kabi xalqaro tashkilotlarning maxalliy va xalqaro ekspertlaridan iborat ishchi guruhi tuzish;

II. Islom banklari faoliyati to'g'risidagi tegishli qonun va me'yoriy hujjatlar qabul qilinmaguncha, Ijara, Musharakah, Mudaraba va Murabaha kabi islom moliysi mahsulotlaridan investitsiya va lizing kompaniyalari foydalanishlari mumkin. Ammo buning uchun ham ba'zi

¹ O Akhmadjonov, A Abdullaev. (2022). ISLOM MOLIYASI. Scientific progress 3 (2), 45-47.
²<https://kun.uz/ru/news/2022/12/09/naseleniye-uzbekistana-prevysilo-36-mln>

³ <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

qonunlar va me'yoriy xujjatlarga muayyan o'zgartirishlar kiritish talab etilishi mumkin (albatta huquqshunoslar buni tahlil qilib

chiqishlari kerak bo'ladi). Ushbu moliya muassasalarini aholining bo'sh mablag'larini jalb qilish huquqiga ega bo'lishlari kerak. Albatta bu jarayon moliyaviy piramidalarning paydo bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli davlat tashkilotlari tomonidan nazoratga olinishi maqsadga muvofiq. Buning uchun investitsiya va lizing kompaniyalarini faoliyatini tartibga soluvchi tashkilot tuzilishi yoki bu vazifa birorta mayjud tashkilot zimmasiga yuklatilishi kerak bo'ladi.

III. O'zbekistonda islam bank ishi va moliya tizimini rivojlantirish maqsadida Islom moliya kengashi tashkil etilishi, va Kengash tarkibiga O'zbekiston Banklar Assotsiatsiyasi, tijorat banklari, Musulmonlar idorasini, xalqaro moliya muassasalarini ekspertlari (shu jumladan Islom taraqqiyot banki, Jahon banki / Xalqaro moliya korporatsiyasi va boshqalar), Kapital bozorini rivojlantirish agentligi, hamda biznes vakillari kiritilishi maqsadga muvofiq.

IV. Kengashning ishchi organi sifatida quyidagi asosiy vazifalar bilan shug'ullanuvchi Islom bank-moliya tizimini rivojlantirish fondi tashkil etish:

- O'zbekistonda islam bank-moliya infratuzilmasini shakkllantirishva rivojlantirish istiqbollarini o'rganish va shu masala yuzasidan Kengashga takliflar taqdirm etish va kerakli tashkiliy ishlarni amalga oshirish;
- islam moliya tizimini shakkllantirish va rivojlantirish uchun turli manbalardan (jumladan xususiy tarmoqdan) moliyaviy mablag'lar jalb qilish (bunda moliya mablag'larini faqat shaffoflik siyosati talablariga javob beradigan manbalardangina jalb qilish asosiy mezon bo'lishi kerak);
- kelajakda O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritadigan barcha turdag'i islam moliya muassasalarini faoliyatini muvofiqlashtirish (O'zR Markaziy banki yoki boshqa davlat idora va tashkilotlarining vakolat va vazifalarini takrorlamagan holda);
- islam bank-moliya tizimi buyicha tijorat banklari xodimlari uchun xorijdan sohaning yuqori malakali mutaxassislarini jalb qilgan holda maxsus o'quv kurslari tashkil etish;
- islam bank-moliya tizimi yaxshi rivojlangan chet davlatlarida trening va seminarlar tashkil qilish;
- yetakchi islam banklari, lizing va investitsion kompaniyalarida O'zbekiston tijorat banklari, lizing va investitsiya kompaniyalarini xodimlari uchun amaliyotlar (interniship) tashkil qilish;
- xalqaro nufuzga ega olim va mutaxassislarining kitoblarini o'zbek va rus tillariga o'girish, ular asosida islam bank-moliya tizimi bo'yicha qo'llanmalar tayyorlash va chop etish;
- bu sohadagi imkoniyatlarni oshirish uchun ta'lim muassasalarini, shu jumladan islam moliyasi yo'nalishida ta'lim beruvchi institutlar va biznes maktablar bilan hamkorlikni kuchaytirish;
- aholining moliyaviy savodxonligini, shu jumladan islam moliya tizimi sohasidagi tushuncha va bilimlarini shakkllantirish va oshirish borasida amaly ishlarni olib borish, jumladan ilmiyommabop maqola va kitoblar tayyorlash va chop etish, radio, televidenie va internetda shu mavzuda maxsus eshittirish va ko'rsatuvlar tashkil qilish va h.k.z.

V. Omonatlarni jalb qilish va yaxshi samara beradigan loyihalarni moliyalashtirishda kapital bozorlarining ahamiyati katta bo'lishi mumkin. Islom moliya mahsulotlari (masalan, Sukuk) dan foydalanish kapital bozorida mablag' jalb qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Байдаулет, Е.А. Исломий молия асослари/ Е.А. Байдаулет. – Тошкент: «О'zbekiston» НМИУ, 2019. – 432 б.
2. Ahmadjonov, A Abdullaev, M Mamayusupov, O Umarjonov. (2021). Raqamlı iqtisodiyotda boshqaruv muammoları. Science and Education, 2(10), 636-642.
3. Akhmadjonov, A Abdullaev, A Abdupattayev, M Sultonov. (2021). ISLAMIC BANKING MANAGEMENT, ASSETS AND LIBILITIES. Scientific progress, 2 (6), 1525-1532.
4. O Akhmadjonov, A Abdullaev, B Umarjonov, M Shamsiddinov. (2021). ISLOM MOLIYASINING XUSUSIYATLARI. Scientific progress 2 (8), 634-638.
5. O Akhmadjonov, A Abdullaev, S Yusupuv, J Anvarov. (2021). ISLOM BANKCHILIGIDAGI XAVF. Scientific progress 2 (8), 639-642.
6. O Akhmadjonov, A Abdullaev, S Karimova, F Solijonova. (2022). Jahon savdo tashkiloti boshqaruv tizimi. Scientific progress 3 (2), 343-347.
7. O Akhmadjonov, A Abdullaev, J Anvarov, S Ismoilov. (2022). ISLOM MOLIYASI. Scientific progress 3 (2), 45-47.
8. O Akhmadjonov, A Abdullaev, M Shamsiddinov, B Umarjonov. (2022). ISLAMIC FINANCE. Scientific progress 3 (2), 48-50.

VI. O'zbekistonda islam moliyasini rivojlantirish bo'yicha, quyidagilarni o'z ichiga olgan maxsus reja ishlab chiqish va qabul qilish:

- huquqiy-me'yoriy, nazorat, likvidlikni boshqarish, soliq tartibi, hisob-kitob va hisobot uchun zarur bo'lgan muhit yaratish;
- islam moliyasi bo'yicha qonunlar, mahsulot va xizmatlarini standartlashtirish va uyg'unlashtirish maqsadida Shar'iy boshqaruv va muvofiqlashtirish boshqaruvini yo'liga qo'yish.
- Bundan tashqari, islam moliya muassasalarini mijozlar o'rtaida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni to'g'ri hal etish mexanizmini yaratish juda muhimdir. Shu maqsadda, davlat sud tizimida islam moliyasi bo'yicha qonunlarni inobatga oluvchi shart-sharoitlar yaratish quidagi bosqichlarda amalga oshadi:
- Islom banklari faoliyati va islam bank xizmatlari bo'yicha mavjud xorijiy davlatlarning tajribalaridan foydalanilgan holda zudlik bilan milliy qonunchilik va me'yoriy hujjalardan qabul qilish;
- Ushbu sohada istiqbolli kadrlarni oliy ta'lim tizimida alohida yo'nalishlar ochgan holda tayyorlash;
- Ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlaridan keng foydalanilgan holda aholining savodxonligini oshirish;
- Yangi davr banki sifatida ochilayotgan istiqbolli raqamli (Anor bank, TBS bank, Apelsin bank) banklar singari alohida milliy islam banklarini ochish;

Xulosa qilib aytganda, har bir inson o'zining e'tiqodidan kelib chiqqan holda moliya xizmatlaridan foydalanishga haqli va hozirgi kunda dunyo bo'y lab an'naviy moliya xizmatlariga alternativ yechimlar yaratilgan zamonda yashayapmiz. Ya'ni, islam moliyasi xizmatlari shariat qoidalariiga asoslangan va ularga ribo aralashmaydi. Shuningdek, o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida islam moliyasi aktivlari yildan-yilga ko'payib borayotganini ko'rishimiz mumkin.

Umuman olganda, islam moliya xizmatlaridan foydalanish bir tomonidan foydalanuvchi e'tiqodini hurmat qilish bo'lsa, ikkinchi tomonidan jamiyatda axloqiy me'zonlarni ushlab turishdir, uchinchi tomonдан esa katta moliyaviy mablag'lar jalb qilishning bir usulidir.

Islom banklari ijtimoiy mas'uliyatda muhim rol o'ynaydi. Qolaversa, islam iqtisodining asosi va ko'rsatmalari o'z-o'zidan adolat va tenglikka erishadi, bunga misol bo'lsa, islam banklari tomonidan yillik zakot to'lovi Qur'oni Karimda ta'kidlanganidek muhtojlarga va zakot kanallariga o'tkaziladi. qashshoqlikni yumshatishda. Zakot - bu bank sof daromadidan ushlab qolinadigan va har yili to'lanadigan diniy yig'im. Bundan tashqari, mikromoliya mahsulotlari cheklangan daromad toifasini moliyalash orqali jamiyatda ma'lum bir muvozanatga erishishga hissa qo'shadi.

Islom banklarining ijtimoiy mas'uliyati diniy, iqtisodiy va axloqiy majburiyatlarni bajarish bo'yicha amalga oshiradigan barcha faoliyatni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, islam moliya banklar jamiyat oldida to'liq shariatga muvofiq bank va xizmatlarni amalga oshirish, barcha muomala va biznesda Islom qoidalariiga rioya qilish uchun mas'ul va majburiydir, bu diniy mas'uliyat bilan bog'liq. Iqtisodiy mas'uliyat nuqtai nazaridan islam banklari daromadli va moliyaviy jihatdan foydalib biznes yuritishi, aksiyadorlar va omonatchilarining pul mablag'larini zaxiralashi va rivojlantirishi kerak. Axloqiy javobgarlik islam banklarining qonunlarda belgilanmagan diniy va urf-odatlarni jamiyatga hurmat va qadrlash majburiyatini anglatadi.

9. A Akhrorjon, A Oybek. (2022). Danger in Islamic Banking. International scientific conference "Topical issues of the economy in modern ...
10. A Akhrorjon, A Oybek. (2022). Characteristics of Islamic Finance. International scientific conference "Topical issues of the economy in modern ...
11. O Akhmadjonov, A Abdullaev, A Ubaydullayev, I Omonov, ... (2022). ISLOM BANKI VA AN'ANAVIY BANKLAR O 'RTASIDAGI FARQLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2 ...
12. <https://kun.uz/ru/news/2022/12/09/naseleniye-uzbekistana-prevysilo-36-mln>
13. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
14. <https://lex.uz/uz/docs/-5972411>

**QO'QON UNIVERSITETI
XABARNOMASI**

**KOKAND UNIVERSITY
HERALD**

**ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО
УНИВЕРСИТЕТА**

5 / 2022

ISBN: 2181-1695

Bosishga ruxsat etildi 2022-yil 28-dekabr.
Qog'oz bichimi 60x84 1/8 «Libre Franklin, Montserrat»
garniturasi. Shartli bosma tabog'i 8. Adadi 20 nusxa.
Buyurtma rakami № . Baxosi shartnomaga asosida.
"Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi"

bosmaxonasida
chop etildi.



OJS
OPEN
JOURNAL
SYSTEMS

